

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

2-son (5-jild)
2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 2 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashi huzuridagi Sudyalari oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrda 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Matkarimova Sadoqat Maqsudovna</i> SHARQSHUNOS A.L.KUNNING XIVA XONLIGI ARXIV Hujjatlari saqlash va tadqiq qilishdagi xizmatlari	13-19
<i>Matyakubov Xamdam Xamidjanovich</i> MARKAZIY OSIYO SIVILIZATSIYALARI VA OROLBO'YI HUDUDIDAGI MADANIYATLAR O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIR VA HAMKORLIK	20-24
<i>Raximov Bektosh, Pirmamatov Ramziddin</i> TURKISTONDA JADIDLARNING TA'LIM-TARBIYA TIZIMINI ISLOH QILISH BORASIDAGI HARAKATLARI TARIXIDAN	25-29
<i>Хуррамова Саодат Хабибовна</i> ИЗУЧЕНИЕ ИСТОРИИ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ РУССКИМИ УЧЕНЫМИ В СЕРЕДИНЕ XIX ВЕКА	30-37
<i>To'uchiyeva Dilnoza Ikrom qizi</i> ZOMIN TUMANINING XX ASRNING 80-YILLARIDAGI IJTIMOYIY, IQTISODIY VA MADANIY HAYOTI	38-44
<i>Elboyeva Shaxnoza</i> AYOLLARNING SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN CHORA- TADBIRLAR VA BU BORADA O'ZBEKISTON TAJRIBASI	45-50
<i>Kanimkulov Olimjon, Xikmatova O'g'iloy</i> TUZNING QADIMDAN HOZIRGI KUNGACHA BO'LGAN TARIXI HAQIDA	51-54
<i>Tojiev Alisher Sultannazirovich</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA XORAZM VILOYATIDA TURIZM SOHASI UCHUN KADRLAR TAYYORLASH MASALASI	55-60
<i>Bekbayev Bekjon</i> XX ASRNING BIRINCHI YARMIDA TOSHKENTDAGI QOZOQLAR TARIXIDAN	61-67
<i>Salayev Umrbek Kadambayevich</i> JANUBIY OQCHADARYO HUDUDIDA KECHGAN ETNIK JARAYONLAR TARIXI SAHIFASIGA DOIR BA'ZI CHIZGILAR	68-71
<i>Ro'ziyeva Mashxura Abdimuminovna</i> LO'LILAR IJTIMOYIY HAYOTINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	72-78
<i>Turdiyeva Mohinur Ilhomjon qizi</i> ICHKI SAVDO QO'QON XONLIGI IQTISODIY TARAQQIYOTINING MUHIM OMILLARIDAN BIRI (1701-1876)	79-84

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Kazakov Olim Sabirovich</i> XIZMATLAR SOHASIDA BOSHQARUVNING YETAKCHILIK KONSEPSIYALARIDAN FOYDALANISH	85-89
---	-------

<i>Исламтудинова Дина Файзрахмановна</i> РАЗВИТИЕ ЭКСПОРТА В АГРОПРОМЫШЛЕННОМ КОМПЛЕКСЕ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	90-98
<i>Alikulov Mehmonali Salahiddin o'g'li</i> QISHLOQ XO'JALIGIGA INVESTITSİYALARNI KENG JALB QILISHDA QISHLOQ XO'JALIGIGA YO'NALTIRILGANLIK INDEKSINING AHAMIYATI	99-106
<i>Omonov Akrom, Ruziyev Baxtiyor</i> O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARI AKTIVLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI	107-113
<i>Tangirov Abduxolik, Nurmanov Sherzod</i> CHO'L-YAYLOVLARI EKOLOGIK HOLATI VA ULARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LARI	114-121
<i>Aliyarov Olim Abdug'aparovich</i> MULKIY SOLIQQA TORTISHDA XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI	122-132
<i>Komilov Bakhtiyorjon</i> UNLOCKING THE POTENTIAL OF E-COMMERCE LOGISTICS IN CENTRAL ASIA	133-144
<i>Djumanov Saitmurod Alibekovich</i> MAHSULOT TANNARXIGA KIRITILADIGAN XARAJATLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	145-150
<i>Yariyev Sherzod Shukurjanovich</i> DAVLAT SEKTORIDA AUDITNI RAQAMLASHTIRISH MASALALARI	151-155
<i>Matkarimov Feruz Bekturdiyevich</i> MINTAQADA TO'QIMACHILIK SANOATINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH	156-160
<i>Xaydarova Durdona, To'xtayeva Moxinur</i> DAVLAT BUDJET DAROMADLARI TUSHUMI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	161-166
09.00.00 – FALSAFA FANLARI	
<i>Yusubov Jaloliddin Kadamovich</i> ABU NASR FOROBIYNING MA'NAVİY-AXLOQIY IDEALLARI VA ULARNING ZAMONAVIY IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLAR RIVOJIDAGI AHAMIYATI	167-175
<i>Nosirxo'jayeva Gulnora Abduqahhorovna</i> FOROBIY ASARLARIDA ADOLAT VA MA'NAVİY YUKSALISH MUAMMOLARI	176-179
<i>Xoliqov Yunus Ortiqovich</i> BAG'RIKENGLIK VA MILLATLARARO MADANIYAT — JAMIYAT TARAQQIYOTINING ASOSI	180-184
<i>Berdaliyeva Sevara</i> ANALYSIS OF VIEWS ON THE ORDERING OF SOCIAL LIFE IN THE WORK OF YUSUF KHOS KHAJIB "KUTADGU BILIG"	185-191
<i>Parpiyev Muhammadjon Tolibovich</i> SHARQ RENNESANSI KELIB CHIQISHINING IJTIMOYIY-FALSAFIY OMILLARI	192-197
<i>Yarashova Mohlaroyim Shuxrat qizi</i> IBN ARABIY "VAHDATUL VUJUD" TA'LIMOTINING FALSAFIY ASOSLARI VA AHAMIYATI	198-202

<i>Ulug'murodov Elyor Saydulloevich</i> ISLOM GNOSEOLOGIYASIDA RATSIONALIZM MUAMMOSI	203-206
<i>Rasulov Azizxon Mukhamadqodirovich</i> AXBOROT MAKONIDAGI TRANSFORMATSIYALASHUVNING DIALEKTIK MAZMUNI	207-213
<i>Xasanov Boburjon Hakimovich</i> EKSTREMISTIK FAOLIYATNING KELIB CHIQISH TARIXI VA TUSHUNCHALARI	214-219
<i>Shokirov Mubin Rustamovich</i> MILLIY O'ZLIKKA SADOQAT – UMRBOQIY QADRIYAT	220-225
<i>Ismoilov Maxammadixon</i> HOZIRGI ZAMON EKOLOGIK MANZARASIDA DESTRUKTIV VA KONSTRUKTIV MUNOSABATLAR DIALEKTIKASI	226-230
<i>Shokirov Murod Rustamovich</i> YANGI O'ZBEKISTONDA QADRIYATLARNING QAYTA TIKLANISHI	231-234
<i>Hamroyev Saidjon Sanoyevich</i> YANGI O'ZBEKISTON STRATEGIYASIDA IJTIMOIIY ADOLATNING BARQAROR TARAQQIYOTNI TA'MINLASH ASOSI SIFATIDAGI O'RNI	235-239
<i>Sharopov O'lmasbek Shuhrat o'g'li</i> ZAMONAVIY OILADA BOLA TARBIYASINING ASOSIY OMILLARI (TARBIYA JARAYONIDA OTA-ONANING ROLI)	240-243
<i>Ulug'ov Jasur Nasirdinovich</i> INSON KAMOLOTI: ISLOMIY QADRIYATLAR VA ULARNING IJTIMOIY HAYOTGA TA'SIRI	244-249
<i>Qodiraliyev Abror Tojimurot o'g'li</i> BOSHQARUVCHILIK FAOLIYATI SHARQ MUTAFAKKIRLARI QARASHLARI MISOLIDA	250-253
<i>Ibragimov Kudrat</i> XALQARO MUNOSABATLAR TIZIMIDA MARKAZIY OSIYONING YANGI MUSTAQIL DAVLATLARI	254-260
<i>Oripov Axmadjon Muxammadjonovich</i> VATANPARVARLIK TUSHUNCHASI SHAKLLARINING IJTIMOIIY-FALSAFIY TALQINI	261-267
<i>Ibragimova Zulayxo Karimbayevna</i> RAHBAR AXLOQIY-ESTETIK KAMOLOTINING SHAKLLANISH JARAYONLARI VA ASOSIY KOMPONENTLARI	268-274
<i>Abdullayev A'zam Abdiyevich</i> YOSHLARDA IJTIMOIIY-IQTISODIY FAOLLIGI DIALEKTIKASI VA UNING AYRIM XUSUSIYATLARI	275-281
<i>Ochilov Azimjon Tuxtamishovich</i> IJTIMOIY QADRIYATLARNING DEFORMATSIYASI VA KORRUPSIYANING TARQALISHI	282-285

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Raxmanova Sarvinoz Alisherovna</i> SABR VA CHIDAMGA OID FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING SEMANTIK TAHLILI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA)	286-289
<i>Kaxarova Iroda Sidikovna</i> MODAL SO'ZLARDA SHARTLILIK VA TIPOLOGIK OMIL: SEMANTIK TURLANISH	290-296
<i>Babadjanova Nazokat Davronbekovna</i> "YUSUF VA ZULAYHO" DOSTONINING XALQ VARIANTLARI TAHLILI	297-302
<i>Sayidova Shakhreizoda Nasrulloevna</i> RELIGIOUS VIEWS OF THE CHARACTER OF AMIR TEMUR IN MUHAMMAD ALI'S WORK "ULUG' SALTANAT"	303-308
<i>Hatamova Kamola Toshmurod qizi</i> TIJORAT HUIJATLARI TILIDA TERMINOLOGIK LEKSIKA	309-316
<i>Ibodullayeva Dinora Bahramjanovna</i> TERMINOLOGIYANING O'ZBEK VA XORIJIY TILSHUNOSLAR TOMONIDAN O'RGANILISHI	317-321
<i>Otajonova Dildor Baxtiyarovna</i> SUD JARAYONIDA OLIB BORILADIGAN NUTQ FAOLIYATI MAHSULOTLARINING SUD-TIBBIY VA LINGVISTIK EKSPERTIZA TEKSHIRUVI	322-326
<i>Khasanov Mahmud Abdurakhmanovich</i> PHONOLOGICAL AND MORPHOLOGICAL INTERACTIONS AMONG THE LANGUAGES	327-331
<i>Xoshimova Oydina Shuxrat qizi</i> OLAMNING LISONIY MANZARASIDA NOMINATSIYANING O'RNI VA RANGLAR IFODASI	332-338
<i>Babayeva Iroda</i> THE CHARACTERISTICS OF NEWSPAPER HEADLINES IN TERMS OF THEIR STRUCTURE AND MEANING	339-342
<i>Fozilov Odil Yuldashevich</i> USE OF LOGICAL AND FIGURATIVE PERIPHRASES IN MODERN UZBEK LANGUAGE.....	343-346
<i>Raxmonova Dildora Mirzakarimovna</i> JADID DRAMALARIDA ISLOM MADANIYATI VA MILLAT TANAZZULI MASALALARI TALQINI (ABDULLA QODIRIYNING "BAXTSIZ KUYOV" DRAMASI MISOLIDA)	347-351
<i>Mamataliyeva Navbahor Xujamberdiyevna</i> TEZ AYTISHLARNING SINTAKTIK TUZILISH JIHATDAN TAHLILI	352-357
<i>Xamidova Sayyora Nurmatovna</i> KATEGORIYA SIFATIDA SHAKLLANGAN MODALLIK TURLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	358-363
<i>Mengboyev Azizbek Alijon o'g'li</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI MILLIY BAYRAM NOMLARINING CHOG'ISHTIRMA TADQIQI	364-368
<i>Hayitova Shohida Erkin qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI OTA KONSEPTINING CHOG'ISHTIRMA TAHLILI	369-373

<i>Xolboyeva Iroda Shuxrat qizi</i> SOMATIK KOMPONENTLI PROVERBIAL FRAZEOLOGIZMLARDA EKVIVALENTLIK MASALASI	374-378
<i>Saparniyazov Omirbek Nukusbayevich</i> MARK TVEN VA MUQIMIY ASARLARINI QIYOSIY O'RGANISH: ADABIY UMUMIYLIK VA USLUBIY O'ZIGA XOSLIGI	379-385
12.00.00 – YURIDIK FANLAR	
<i>Muxitdinova Firюза</i> КЛЮЧЕВЫЕ ПРИОРИТЕТЫ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА	386-393
<i>Uzakova Go'zal Sharipovna</i> HUDUDLARNI ZONALASHTIRISHNING HUQUQIY MASALALARI	394-403
<i>Tulaganova Gulchexra, Nurilloev Shavkat</i> INSON QADRINI YUKSALTIRISH VA ERKIN FUQAROLIK JAMIYATINI YANADA RIVOJLANTIRISH	404-414
<i>Yakubova Iroda Bahramovna</i> MUALLIFLIK SHARTNOMASINING MAZMUNI, TUZILISHI VA UNING ASOSIY SHARTLARI	415-419
<i>Obidov Tolibjon Avezxanovich</i> JINOIY SUD ISHLARINI YURITISH SOHASIDAGI O'ZARO HAMKORLIK MASALALARI	420-425
<i>Tuxtashev Sherzod Azimovich</i> JINOYAT ISHINI TO'XTATIB TURISHNING JABRLANUVCHI VA AYBLANUVCHI UCHUN HUQUQIY OQIBATLARI	426-430
<i>Maxamatov Maxmud Maxamataminovich</i> INSON HUQUQLARINI XALQARO ORGANLARDA HIMOYA QILISH MASALALARI	431-436
<i>Rahmatov Elyor Jumaboyevich</i> BOJXONA MA'MURIYATCHILIGINI ISLOH QILISHDA BOJXONA ORGANLARINING DAVLAT IQTISODIY VA HUQUQIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA ISHTIROKI	437-441
<i>Jumaniyozova Dilfuza Kamolovna</i> IJTIMOIY XAVF GURUHIGA KIRUVCHI YOSHLAR MUAMMOLARI YECHIMI: XORIY TAJRIBASI	442-447
<i>Shermatov Nuriddin</i> RAQAMLI ERADA SUN'IY INTELLEKT (AI) VA ADDITIV (3D PRINTING) TEKNOLOGIYALARI INTELLEKTUAL MULK HUQUQINING OBYEKTI SIFATIDA	448-455
<i>Juraeva Asal</i> EXECUTION OF INTERNATIONAL COMMERCIAL ARBITRAL AWARDS	456-461
<i>Собиров Саидбек Махмудович</i> ДОКТРИНАЛЬНО-ПРАВОВЫЕ И ПРИКЛАДНЫЕ ВОПРОСЫ СУДЕБНОГО ПРИМЕНЕНИЯ И ТОЛКОВАНИЯ ОТДЕЛЬНЫХ НОРМ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА О НЕПЛАТЕЖЕСПОСОБНОСТИ	462-467
<i>Nurbayev Muzaffar Erkinovich</i> DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATI INSTITUTINING NAZARIY-HUQUQIY DOKTRINASINI TAKOMILLASHTIRISH	468-478

<i>Qudratillayev Jaxongir Zokirjon o'g'li</i> INTERNETDAN FOYDALANISH HUQUQINING KONSTITUTSIYAVIY HUQUQIY ASOSLARI: INTERNET TUSHUNCHASI	479-485
<i>Xabibullayev Azizillo Lutfullo o'g'li</i> SUN'IY INTELLEKT VA INTELLEKTUAL MULK HUQUQI O'RTASIDAGI MUNOSABATLAR VA HUQUQIY MUAMMOLAR	486-491
<i>To'xtayev O'ktamjon Zarifjon o'g'li</i> MURAKKAB ASHYOLARNING O'ZIGA XOS BELGILARI, ULARNING HUQUQIY VA FALSAFIY MOHIYATI	492-500
<i>Yusupov O'ktambov</i> KORRUPSIYAVIY BITIM HAQIQIY EMASLIGINING FUQAROLIK-HUQUQIY OQIBATLARI	501-509
<i>Murodxonov Muhammadnur</i> XALQARO HUQUQNING TADRIJIY RIVOJLANISHIDA FUNDAMENTAL ASARLARNING O'RNI	510-518
<i>Ёкубов Шухратжон, Эргашева Муниса</i> МОДЕРНИЗАЦИЯ СИСТЕМЫ МЕДИЦИНСКОГО ПРАВА В УЗБЕКИСТАНЕ: БАЛАНС МЕЖДУ МЕЖДУНАРОДНЫМИ СТАНДАРТАМИ И НАЦИОНАЛЬНЫМИ ОСОБЕННОСТЯМИ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ	519-523
<i>Qudratillayev Xazratoli Zokirjon o'g'li</i> JINOIY FAOLIYATDAN OLINGAN DAROMADLARNI LEGALLASHTIRISHNI TERGOV QILISH SOHASIDA XORIJIY DAVLATLAR VAKOLATLI ORGANLARI BILAN HAMKORLIK MASALALARI	524-530
<i>Umarov Abbosjon Asliddin o'g'li</i> SUG'URTA INSTITUTINING NAZARIY-HUQUQIY TAVSIFI	531-536
<i>Хайдарова Хилола Анваровна</i> ПРАВО НА ИНКЛЮЗИВНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ КАК СУБЪЕКТИВНОЕ ПРАВО ЛИЦ С ИНВАЛИДНОСТЬЮ	537-542
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Ibraximov Sanjar Urunbayevich</i> AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA SPORTCHILARNING INDIVIDUAL XUSUSIYATLARI BILAN ZIDDIYATLI VAZIYATLARDAGI XULQ-ATVOR STRATEGIYALARI O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIGI	543-547
<i>Karimov Akramjon Zaynobidinovich</i> RAQAMLI TRANSFORMATSIYALAR SHAROITIDA YOSHLARNING AXBOROT XAVFSIZLIGI MADANIYATI VA MEDIAIMMUNITETINI TA'LIM JARAYONLARI ORQALI SHAKLLANTIRISH MASALALARI	548-554
<i>Abdullayev Yashnarjon Mahkamovich</i> 7-9 YOSHLI O'QUVCHILARNING HARAKAT SIFATLARINI HARAKATLI O'YINLAR VOSITALARI ORQALI RIVOJLANTIRISH	555-561
<i>Karimov Qayum Mamashayevich</i> KOMPYUTERLI MATEMATIKA TIZIMLARINI O'QITISHDA TARMOQ TEKNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH	562-569

<i>Xojimirzayeva Shaxnoza Shokir qizi</i> MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH JARAYONI	570-576
<i>Qodirov Azamat Muxriddinovich</i> IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABLAR YUQORI SINIF O'QUVCHILARINING INGLIZ TILI KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA MATN O'QISH MALAKASI VA KOMMUNIKATIV YO'NALGAN O'QISH MASHQLARINING AHAMIYATI XUSUSIDA	577-582
<i>Тлеумуратова Абадан Бекбановна</i> ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К РАЗВИТИЮ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ	583-585
<i>Turdimuratov Dilmurad Yuldashevich</i> TALABALAR TA'LIMINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR	586-592
<i>Mamaziyyayev Oblaberdi</i> OLIY TA'LIMNING NEMIS TILI DARSLARIDA GRAMMATIK TARJIMA METODIDAN FOYDALANISH AFZALLIKLARI	593-598
<i>Isoqov Murod Madaminjonovich</i> YOSHLAR JAMOAT TASHKILOTLARIDA IJTIMOYIY KAPITALNI SHAKLLANTIRISHNING ILG'OR XORIJIY MODELLARI	599-605
<i>Nasriddinova Hulkar Komiljonovna</i> BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKANI O'QITISHNING HOZIRGI HOLATI	606-610
<i>Allayeva Hafiza Rustam qizi</i> BOSHLANG'ICH SINFDAN O'QITISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH USULLARI	611-614
<i>Raxmonberdiyeva Oygul Rayimjonovna</i> AKADEMIK QALAMTASVIR MASHG'ULOTLARIDA TALABALARGA INSON PORTRETINI ISHLASH METODIKASI	615-621
<i>Xo'jaqulov Ro'zibek Ilhomjon o'g'li</i> BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARIDA KASBIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHDA RANGTASVIR FANINING AHAMIYATI	622-625
<i>Elova Sitara Axmatkulovna</i> QISQA MASOFALARGA YUGURUVCHILARNI TEXNIK TAYYORGARLIGINI SHAKLLANISH DARAJASI	626-629

Received: 25 January 2025
Accepted: 1 February 2025
Published: 10 February 2025

Article / Original Paper

ARTIFICIAL INTELLIGENCE (AI), NON-FUNGIBLE TOKENS (NFT), AND ADDITIVE TECHNOLOGIES (3D PRINTING) AS OBJECTS OF INTELLECTUAL PROPERTY RIGHTS IN THE DIGITAL ERA

Shermatov Nuriddin

Tashkent State University Law
Lecturer of the Department of Civil Law
E-mail: shermatov.nuriddin@internet.uz
n.shermatov@tsul.uz

Abstract. This article provides a comprehensive and in-depth analysis of the multifaceted impact of innovative digital-age technologies—artificial intelligence (AI) and additive manufacturing technologies (3D printing)—on the field of intellectual property law. The study delves into issues of copyright in the context of artificial intelligence, and the influence of additive manufacturing (3D production) on intellectual property rights. Particular emphasis is placed on the content and significance of presidential decrees and resolutions aimed at shaping a regulatory framework in the context of technological advancement.

The article examines complex challenges arising in the intellectual property domain due to the introduction of innovative technologies, drawing on real-world cases to explore their interrelations and developmental trends. The research offers well-grounded and practical recommendations for improving legal regulatory mechanisms in this area, alongside a holistic approach to the study of new intellectual property objects and their transformation in the digital era.

Keywords: artificial intelligence, intellectual property, copyright, additive manufacturing, 3D printing, digital era, technologies, legal regulation.

RAQAMLI ERADA SUN'İY INTELLEKT (AI) VA ADDITIV (3D PRINTING) TEXNOLOGIYALARI INTELLEKTUAL MULK HUQUQINING OBYEKTI SIFATIDA

Shermatov Nuriddin,

Toshkent davlat yuridik universiteti
Fuqarolik huquqi kafedrasini o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola raqamli eradagi innovatsion texnologiyalarning – sun'iy intellekt (AI) va additiv (3D printing) texnologiyalarining intellektual mulk huquqi sohasiga kompleks ta'sirini har tomonlama chuqur tahlil qiladi. Maqolada sun'iy intellekt kontekstidagi mualliflik huquqi masalalari, shuningdek additiv texnologiyalarning (3D ishlab chiqarishning) intellektual mulk huquqiga ta'siri keng ko'lamda o'rganiladi hamda texnologik rivojlanish davrida normativ huquqiy bazani shakllantirish bo'yicha Prezident qaror va farmoyishlarining mazmun-mohiyatini ochib beradi. Maqolada innovatsion texnologiyalarning intellektual mulk huquqi sohasida yuzaga keltirayotgan murakkab muammolari real keyslar asosida tahlil qilinadi, ularning o'zaro munosabatlari va rivojlanish tendensiyalarini o'rganadi. Tadqiqot ushbu sohadagi huquqiy tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha asosli va amaliy tavsiyalar beradi, intellektual mulk huquqining raqamli eradagi yangi obyektlari va transformatsiyasini kompleks yondashuvda o'rganadi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, intellektual mulk huquqi, mualliflik huquqi, additiv texnologiyalar, 3D printing, raqamli era, texnologiyalar, huquqiy tartibga solish.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I2Y2025N72>

Kirish. XX asrga kelib, sanoat va texnika sohasida olamshumul kashfiyotlar, qo‘l mehnati o‘rniga ishlab chiqarishda mashinalar va texnik uskuna va vositalarning keng joriy etilishi har bir davlat uchun iqtisodiy yuksalishning eng asosiy omili edi [1]. Bugunga kelib davlatlar ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatni raqamlashtirish, avtomatlashtirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini takomillashtirish, texnologiya yutuqlarini faol ravishda o‘zlarida joriy etishdan tortib kosmosni egallash, Oy, Mars kabi sayyoralarda inson uchun sharoitlar yaratishgacha bo‘lgan maqsadlarni oldiga qo‘ymoqda. “Texnologiyalar asri” — deya ta’riflangan XXI asr o‘z hayotining chorak qismini bosib o‘tishga ulgurmay yangi nomni oldi va aql egalari uning “tug‘ilganlik guvohnomasi”dagi nomini “sun‘iy intellekt asri” deb o‘zgartirishdi. Texnologik ishlanmalar aslida XX asr hosilasi bo‘lsa-da, uning o‘smirlik, balki yetuklik davri ham bizning davrga to‘g‘ri keldi. Internet atalmish jahon axborot tizimlari takomillashgach, ilmiy ishlanmalar murakkab texnologik bulutlarga joylashtirildi bu esa o‘z navbatida dunyoni kichik bir qishloqqa aylantirib mamlakatlar orasidagi chegaralarni shunchaki xaritalarda qolishini ta’minladi. Insonlarda ma’lumotlarni olish imkoniyati kengaydi hamda ushbu yaratish aqli jarayonlari va hosilotlari chegarasi kengaygani sari rivojlanish keyingi bosqichlarga quloq yozaverdi. Biz endi nafaqat texnik yoki jismoniy harakatlarni talab qiladigan ishlarni balki intellekt mahsulimizni ham raqamli olamga ko‘chirdik va ushbu ishlanmalarga turli nomlarni berdik. 3-mingyillik boshidan buyon texnologiyalar shu darajaga yetdiki boshqa sohalar yetib olishga ulgurmayotgandek, jumladan, ushbu tendensiyalar huquq yo‘nalishini ham chetlab o‘tmayapti. Intellekt hosilasi bo‘lmish ushbu vositalar fuqarolik huquqining ayni yo‘nalishida yangi tadqiqotlarni taqozo etmoqda.

O‘rganilganlik darajasi. Ushbu yo‘nalishda eng so‘ngi tadqiqotlar soha magikanlari O. Okyulov, N. Imomov, B. Toshev qalamiga mansubdir. Mualliflar intellektual mulk huquqining yangi obyekti sifatida integral mikrosxemalar topologiyalari, gen injeneriyasi yutuqlarining huquqiy holati, klonlashtirish faoliyatini huquqiy tartibga solish va uning natijalarining huquqiy maqomi, nanotexnologiyalar, Domen nomlariga bo‘lgan huquq, innovatsiyalar – intellektual faoliyatning yangi natijalarini tadqiq qilishgan.

Muhokamalar. Bugungi kunga kelib esa, yana bir qator yangi obyektlar bo‘yin cho‘zmoqda, jumladan, sun‘iy intellekt va uning ishlanmalari, additiv texnologiyalar (3D printing) bilan bog‘liq intellektual mulkiy munosabatlar hali hech bir davlat qonunchiligi bilan tartibga solinmagan. Biz ushbu kichik tadqiqotimizda ayni masalalar va ular bilan bog‘liq huquqiy chegaralarni belgilab olishga harakat qilamiz. Mavzuyimiz ustuni bo‘lmish “Intellektual mulk huquqining o‘zi nima?” – degan haqli savolga javob berishdan boshlaymiz. Intellektual mulk fuqarolik huquqining alohida mustaqil instituti bo‘lib, ijodiy faoliyat natijalari va ularga tenglashtirilgan obyektlar bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soluvchi normalar yig‘indisidan iborat. Intellektual mulk iborasi lotincha “intellekt” so‘zidan olingan bo‘lib, aql-idrok ma’nosini anglatadi. Fuqarolik qonunchiligida intellektual mulk tushunchasiga ta’rif berilmagan. Biroq, intellektual mulk tushunchasiga ayniy tushuncha hisoblangan ijodiy faoliyat natijasi tushunchasiga ta’rif berilgan bo‘lib, unga ko‘ra, intellektual faoliyat natijasida yaratilgan, obyektiv shaklda ifodalangan, yangi, original (unikal) xususiyatlarga ega bo‘lgan, muallifi (egasi, foydalanuvchisi) huquqlari qonun tomonidan e’tirof etilgan va tegishli tartibda huquqiy muhofaza etiladigan g‘oya, bilim, asar yoki boshqacha ko‘rinishdagi mahsulotni ijodiy faoliyat natijasi sifatida ta’riflash mumkin [2]. Amaldagi O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1031-moddasiga ko‘ra, intellektual mulk obyektlari uch guruhga bo‘linadi, bular:

1) intellektual faoliyat natijalari:

- *fan, adabiyot va san'at asarlari;*
- *eshittirish tashkilotlarining ijrolari, fonogrammalari va eshittirishlari; elektron hisoblash mashinalari uchun dasturlar va ma'lumotlar bazalari;*
- *ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari;*
- *seleksiya yutuqlari;*
- *oshkor etilmagan axborot, shu jumladan ishlab chiqarish sirlari (nou-xau);*

2) fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining, tovarlar, ishlar va xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi vositalar:

- *firma nomlari;*
- *tovar belgilari (xizmat ko'rsatish belgilari);*
- *tovarlar chiqarilgan joy nomi;*

3) FKda yoki boshqa qonunlarda nazarda tutilgan hollarda intellektual faoliyatning boshqa natijalari hamda fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining, tovarlar va xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi vositalar.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, mamlakatimizda intellektual faoliyat va uning natijalarini huquqiy jihatdan muhofazalashga qaratilgan bir qancha normativ-huquqiy hujjatlar bazasi shakllantirilgan. Jumladan, intellektual mulk huquqining kafolati 2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasida nazarda tutilgan. Mazkur moddaga muvofiq, Har kimga ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Intellektual mulk qonun bilan muhofaza qilinadi. Hamda davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishi haqida g'amxo'rlik qiladi. Bunda "har kim" — deganda, har bir jismoniy shaxs nazarda tutiladi va jismoniy shaxs – fuqaroning aqli rasoligi, o'z harakatining oqibatini tushuna olish yoki olmasligi, yoshi, muomala layoqatiga egaligi ahamiyatga ega bo'lmaydi. Shu bilan birga shaxs har qanday sharoitda ham ijod qilish huquqiga ega hisoblanadi. Masalan, ozodlikdan mahrum etish jazosini o'tash davomida shaxs she'r, hikoya, roman yozishi mumkin. Mazkur holatda "har kim" — deganda, faqat jismoniy shaxs nazarda tutilishi xususida fikr yuritganda shuni ta'kidlash lozimki, ijodiy faoliyat bilan shug'ullanish imkoniyatiga fuqarolik huquqi subyektlari orasidan faqatgina fuqarolar ega bo'ladilar va faqat fuqarolargina aqliy faoliyatni amalga oshirishi mumkin bo'lgan yagona mavjudot hisoblanadi.

Ma'lumki, ilmiy va texnikaviy ijodkorlik o'ziga xos ikki yo'nalishga bo'linadi:

- 1. Ijodiy faoliyat*
- 2. Ilmiy-tadqiqot faoliyati.*

Birinchi holatda ijodiy faoliyat bilan shug'ullanish, uni amalga oshirish, ijodiy qobiliyatni amalga oshirish uchun shaxsga nisbatan hech qanday talab va senzlar qo'yilmaydi. Bunda fuqaro o'z istak va xohishidan kelib chiqib muayyan san'at asarlarini yaratishi mumkin. Masalan shoirning she'r yozishi, haykaltaroshning haykal yasashi, yozuvchining roman yaratishi, rassomning rasm chizishi va shu kabilar. Intellektual faoliyatning ikkinchi turida esa, ilmiy-tadqiqot faoliyati subyektiga nisbatan muayyan talab va senzlar qo'yilishi mumkin. Bunda amalga oshirilgan faoliyat natijasi ijodiy faoliyatdan farqli ravishda vakolatli davlat organi yoki boshqa shaxslar tomonidan baholanadi. Masalan, fanning biror sohasi bo'yicha

ilmiy-tadqiqot ishi amalga oshirilgan bo'lsa, yaratilgan natijaning belgilangan talablarga javob berishi, shaxsning bilimi va tajribasi yetarli ekanligi aniqlanadi.

Yuqorida nazarda tutilgan eramizning yangi obyektlari deya ta'rif berganlarimiz intellektual mulk huquqining umumiy qoidalariga bo'ysunmaydigan joylari ham mavjud. Birinchi holatda sun'iy intellekt va uning ishlanmalari masalasiga to'xtalsak, ushbu mavzuda S.S.Bozarov o'zining "Sun'iy intellekt doirasida huquqiy javobgarlik" Yuridik fanlar doktori (Doctor of Science) [3] dissertatsiyasida ko'rib chiqqan, unga ko'ra, bugunda dunyoda sun'iy intellekt (keyingi o'rinlarda – SI) sohasidagi ishlanmalar, ularga nisbatan intellektual mulk huquqi va mazkur mahsulotlarning huquqiy tabiati, xususan yuridik javobgarligi masalalari allaqachon jiddiy muammoga aylanishga ulgurgan, jumladan, 2015- va 2018-yillarda SI negizidagi avtopilot boshqaruvidagi Tesla avtomashinasi avtohalokatni sodir etishi insonlarni hayotdan ko'z yumishiga olib keldi [4]. Shuningdek, 2015-yilda SI manipulyator roboti harakati Folksvagen avtomobil zavodida ishchi o'limiga sabab bo'ldi [5], 2020-yilda Liviyada harbiy uchuvchisiz boshqariladigan dron mustaqil ravishda, operator ishtirokisiz, insonni izlab topdi va uni nobud qildi. Mazkur voqealar OAV orqali axborot berilganlari, amalda SI sohasidagi huquqiy javobgarlik masalalari tezkor sur'atlar bilan odimlab borayotgan texnologik inqilobning shiddatiga mos kela olmay qolayotgani tufayli, SI sohasidagi mahsulotlar va ularga bog'liq zamonaviy texnologiyalar (aqlli shahar, smart-kontrakt, raqamli iqtisod, blokcheyn va hokazo) ishlab chiqarilishi barobarida yuzaga kelayotgan chaqiriqlar, munosabatlar an'anaviy huquq normalari va institutlarni to'liq qayta ko'rib chiqish zaruratini vujudga keltirmoqda. Falsafada inson intellekti tabiati va maqomi masalasi hal etilmay turib yuzaga kelgan sun'iy intellekt tushunchasi haqida bir qator nazariyotlar ilgari surilgan. Bundan tashqari, kompyuter tomonidan "intellekt"ga erishishning aniq mezoni yo'q, garchi sun'iy intellektidan oldin bir qator farazlar, masalan, Tyuring testi [6] yoki Nyuell-Simon gipotezasi [7] taklif qilingan. Hozirgi vaqtda sun'iy intellektning vazifalarini tushunishda ko'plab yondashuvlar mavjud. Bu fan psixologiya, neyrofiziologiya, transgumanizm va boshqalar bilan bog'liq. Barcha informatika fanlari singari u matematik algoritmlardan foydalanadi. Uning uchun falsafa va robototexnika alohida ahamiyatga ega. Umumiy olganda, sun'iy intellektga yagona belgilangan nazariy ta'rif berilmagan, unga biz mualliflik nazariyasini taklif qilishimiz hamda uni quyidagicha ta'riflashimiz mumkin:

Sun'iy intellekt – bu inson aqli jarayonlari va hosilotlarini kompyuter tizimlariga oldindan kiritilgan ma'lumotlar asosida simulyatsiya qilishdir

Ushbu ta'rifni qismlarga bo'ladigan bo'lsak, sun'iy intellekt o'z nomi bilan sun'iydir, ya'ni, u tabiat qonuni asosida vujudga kelmagan, balki insonning aql jarayoni natijasi ishlanmalarini virtual shaklda yagona serverga joylashtirilgan virtual bulutlardan olib generatsiya qilib yangi xulosalarni taqdim etadi. Futbol sport turida simulyatsiya tushunchasi mavjud va bunda futbolchi o'ziga nisbatan qo'pollik ishlatishga urinilgan vaziyatda "menga qo'pollik ishlatildi" — deya ko'rsatadi. Ma'lumotlarni ham sun'iy intellekt xuddi shu tarzda taqdim etadi, ya'ni, huquqiy tilda aytganda uning ishlanmalari aslida inson intellekti natijalaridan kelib chiqib generatsiya qilingan hosila asar va sun'iy intellekt uni – "men o'ylab topdim, bu mening xususiy ishlanmam" — deb simulyatsiya qiladi. Amaldagi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1044-moddasi hamda "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 8-moddasiga ko'ra, insonning bevosita individual asar yaratishga qaratilgan ijodiy faoliyati amalga oshirilmasdan, muayyan

turdagi ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan texnika vositalari yordamida olingan natijalar mualliflik huquqi obyektlari hisoblanmaydigan materiallar ro'yxatida e'tirof etilgan. Ammo, mutaxassislar orasida ushbu qoidadagi "ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan" jumlasini savollarni uyg'otadi, ya'ni, ishlab chiqarish deganda sanoat ishlab chiqarishi nazarda tutilganmi yoki kompyuterning ma'lumotlarni qayta ishlashi ham ishlab chiqarishmi? Nima bo'lganda ham filologik tahlilda ushbu jumlaning ma'nosi texnik ishlab chiqarishga dalolat qiladi. Xo'sh unda sun'iy intellekt va uning ishlanmalari intellektual mulkiy munosabatlarda qanday o'rin tutadi? Men u yordamida maqola yozsam u mening muallifi maqolam hisoblanadimi? Jahonda ushbu savollarga nisbatan evristik va kognitiv yondashuvlar asoslantirilgan. Umumiy olganda, nafaqat intellektual mulk huquqi sohasida, balki iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada, davlat boshqaruvi tizimida sun'iy intellekt texnologiyalarini ishlab chiqish va ulardan foydalanishda yagona talablar, javobgarlik, xavfsizlik va shaffoflikni belgilovchi normativ-huquqiy bazani ishlab chiqish lozim. Ushbu vazifalarga asos bo'lib xizmat qiluvchi bir qator huquqiy asoslar ham mavjud jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son, 2021-yil 17-fevraldagi PQ-4996-sonli qarori, 2021-yil 26-avgustdagi PQ-5234-son qarori, 2021-yil 1-apreldagi PF-6198-son Farmoni, 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son Farmoni, 2022-yil 6-iyuldagi PF-165-son Farmoni, 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-son Farmoni va raqamli texnologiyalar sohasiga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda normalar bazasi shakllantirish zarurati nazarda tutilgan.

Texnologik yana bir yangi ishlanma bu — Additiv ishlab chiqarish va u bilan bog'liq muammolardir. Additiv ishlab chiqarish (qatlamli bosib chiqarish yoki 3D bosib chiqarish) texnologiyasi obyektlarni qatlam-qatlam hosil qilish orqali ishlab chiqarishga asoslangan [8]. Ushbu texnologiya sanoat, tibbiyot, aerokosmik va boshqa ko'plab sohalarda inqilobiy o'zgarishlarni yuzaga keltirgan bo'lsa-da, u bilan bog'liq intellektual mulk huquqi sohasida yangi muammolarni ham paydo qildi. Quyida ushbu masalalar tahliliy va amaliy misollar asosida ko'rib chiqishga harakat qilsak. Dastlab, intellektual mulk huquqi sohasidagi asosiy muammolarga to'xtalsak:

1. *Patent huquqining buzilishi* — patent huquqi texnologik ishlanmalarni himoya qiladi, ammo additiv ishlab chiqarishda texnologiya va mahsulotlarni nusxalash osonlashgani sababli bu huquq tez-tez buzilmoqda. Masalan, Stratasys va Afinia [9] o'rtasidagi nizoni olishimiz mumkin. 2013-yilda Stratasys, 3D bosib chiqarish texnologiyalarida yetakchi kompaniya, Afinia kompaniyasini o'zining patent huquqlarini buzganlikda ayblab sudga berdi. Stratasysning da'vosiga ko'ra, Afinia tomonidan ishlab chiqarilgan H480 modelidagi 3D printerda Stratasysning to'rtta asosiy texnologik patenti ruxsatsiz qo'llangan. Sud Stratasys foydasiga qaror chiqardi, bu Afinia uchun moliyaviy zarar va mahsulotlarini qayta ishlab chiqish zaruratini keltirib chiqardi. Ushbu ish intellektual mulk huquqi himoyasining kuchaytirilgan nazoratini talab qilayotganini ko'rsatdi va additiv ishlab chiqarish sohasidagi patent nizolari bilan bog'liq konkret normalar zaruratini ta'kidlaydi. Bu holat 3D printer texnologiyalarining tez rivojlanishi natijasida patent nizolarining kengayib borishini ko'rsatdi va innovatsiya sohasida huquqiy tartibotning ahamiyatini yana bir bor tasdiqladi.

2. *Mualliflik huquqining buzilishi* — additiv ishlab chiqarish jarayonida raqamli dizayn fayllari muhim rol o'ynaydi. Ushbu fayllar mualliflik huquqi bilan himoyalangan bo'lishiga qaramay, ruxsatsiz foydalanish keng tarqalgan. Masalan, Disney figuralari keysida ko'rsak, 2018-yilda Disney kompaniyasiga tegishli multfilm qahramonlarining 3D modellari o'z ichiga

olgan raqamli fayllar internetda intellektual mulk sifatida mualliflik huquqi bilan himoyalangan bo'lishiga qaramay, ochiq platformalarda tarqalib ketadi ushbu fayllar foydalanuvchilarga ruxsatsiz yuklab olish va 3D printerlar yordamida Disney qahramonlari figurkalarini tayyorlash imkoniyatini bergandi. Kompaniyaning mualliflik huquqi ostidagi modellar ochiq platformalarda tarqatilib, ruxsatsiz chop etildi va kompaniyaga juda katta zarar yetkazildi[10]. Bu holat ushbu sohadagi mualliflik huquqini nazorat qilishning qiyin ekanligini ko'rsatdi, chunki raqamli fayllar global miqyosda keng tarqalib ketishi mualliflik huquqini buzgan shaxslarni aniqlash va ularga qarshi huquqiy choralar ko'rishni qiyinlashtiradi. Disney kompaniyasi bir nechta platformalardan noqonuniy tarqalgan fayllarni olib tashlashga muvaffaq bo'ldi va mualliflik huquqini buzganlarga nisbatan da'vo qo'zg'adi. Ammo fayllarning keng tarqalishi virtual dunyodan ularning to'liq yo'q qilinishini imkonsiz qildi. Ushbu keys raqamli texnologiyalarning rivojlanishi intellektual mulk huquqini buzishning yangi usullarini keltirib chiqarayotganini ko'rsatdi hamda mualliflik huquqini himoya qilish uchun raqamli huquqlarni boshqarish (DRM) kabi texnologik nazorat vositalarini rivojlantirish zarurati yana bir bor eslatdi.

3. *Tovar belgilari va soxta mahsulotlar* — additiv ishlab chiqarish orqali brendlarning mahsulotlariga taqlid qiluvchi yoki ularni birga-bir takrorlovchi soxta qismlar ishlab chiqarish osonlashdi. Aniq keys holatida tahlil qilinsa, 3D bosib chiqarish texnologiyasining rivojlanishi Lego konstruktori qismlariga mos keluvchi soxta mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotish holatlari keng tarqalishiga olib keldi [11]. 3D printerlar yordamida foydalanuvchilar Lego qismlariga juda o'xshash qismlarni yaratib, ularni internetda sotuvga qo'ydilar. Lego qismlarining o'ziga xos dizayni va brendi xalqaro qonunchilik tomonidan himoyalangan bo'lsa-da, soxta qismlarni ishlab chiqaruvchilar ushbu huquqlarni buzib, noqonuniy daromad olishda davom etmoqda. Ushbu holat tovar belgilarini himoya qilishda 3D bosib chiqarish texnologiyalari yuzaga keltirayotgan yangi xavflarini ko'rsatdi. Lego kompaniyasi global miqyosda huquqiy himoya mexanizmlarini kuchaytirish va foydalanuvchilarni noqonuniy faoliyatdan qaytarish uchun butun dunyo hamjamiyatida xabardorlik propagandasini ham olib bordi. Bu Lego kompaniyasining intellektual mulk huquqlari buzilishiga olib keldi.

4. *Tijorat sirlarini himoya qilish* — raqamli texnologiyalar ishlab chiqarish jarayonining maxfiyligini xavf ostiga qo'yimoqda. GE Aviation bilan bog'liq holatni olaylik, ushbu kompaniya aviatsiya dvigatellari va ehtiyot qismlarini ishlab chiqaruvchi yirik ishlab chiqaruvchilardan hisoblanadi, kompaniya 3D bosib chiqarish texnologiyasini qo'llab, parvoz qismlarini ishlab chiqarishni optimallashtirishga erishgan edi. Ammo, ichki ishlab chiqarish jarayonlariga tegishli raqamli ma'lumotlarning noqonuniy tarqalishi kompaniya uchun muammolar tug'dirdi. Ushbu holat raqamli texnologiyalar rivojlanishi savdo sirlarini himoya qilishda jiddiy xavflarni keltirib chiqarayotganini ko'rsatdi. GE Aviation kabi kompaniyalar maxfiylikni saqlash uchun faqat texnologik himoya vositalariga emas, balki xalqaro huquqiy hamkorlikka ham tayanishi lozimligini ko'rsatdi.

Natija va xulosalar. Texnologiya bilan bog'liq huquqiy nizolar ko'pincha patentlar, mualliflik huquqlari va savdo sirlarining turli davlatlar qonunchiligi bilan qanday muhofaza qilinishiga bog'liq. Masalan, bir davlatda patentlangan texnologiya boshqa davlatda qonuniy hisoblanmasligi yoki ruxsatsiz foydalanilgan dizaynlar, sanoat namunalari haqida aniq huquqiy mexanizmlarning yo'qligi katta ziddiyatlarni yuzaga keltiradi. Shu bilan birga, raqamli dizaynlarning internet orqali erkin tarqalishi bu muammolarni yanada murakkablashtiradi.

Masalan, AQShda patentlangan texnologiyalar Yevropa Ittifoqi yoki Osiyo davlatlarida ruxsatsiz qo'llanilishi global innovatsiya tizimiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shunga o'xshash holatlarda kompaniyalar o'z texnologiyalarini himoya qilish uchun bir vaqtning o'zida bir nechta davlatda huquqiy choralar ko'rishga majbur bo'ladilar. Bu esa ko'p vaqt va mablag' talab qiladigan jarayondir. Ushbu intellektual mulk obyektlari bilan bog'liq muammolarni hal qilish uchun davlatlar o'rtasida intellektual mulk huquqini tartibga soluvchi xalqaro standartlarni ishlab chiqish va ularni amalda tatbiq etish zarur. Jahon Savdo Tashkiloti doirasida tuzilgan TRIPS shartnomasi [12] bu borada muhim qadam bo'lsa-da, bugungi rivojlanish erasi uchun yetarli emas. Shu sababli quyidagi takliflar ilgari surilishi mumkin:

1. *Global qonunchilikni bir maxrajga birlashtirish: Intellektual mulk bo'yicha xalqaro huquqiy asoslarni unifikatsiya qilish va davlatlar o'rtasidagi ziddiyatlarni minimallashtirish maqsadida ularni bir maxrajga, ya'ni, bitta umumiy normalar jamlanmasiga birlashtirish;*
2. *Xalqaro Intellektual mulk huquqini muhofaza qiluvchi sud tizimini joriy etish: Transchegaraviy nizolarni tezkor hal qilish uchun xalqaro miqyosdagi ixtisoslashgan sud organlarini tashkil etish.*

Boshqa alternativ yechimlar va takliflar qo'shimcha o'rganish va ilmiy tadqiqotlarni talab qiladi. Qo'shimchasiga, texnologik rivojlanish o'zining yuqori nuqtasiga yetdi deyilganida yana bir yangi chaqiriqlar bilan boshqa texnologiyalar taqdim qilinyapti, shuning uchun ham xalq tilida o'xshatish qilganda: *"Bugunning gapi ertaga to'g'ri kelmayapti"*. Yanada aniqroq aytilsa, qonunchilikdagi bugungi o'zgarishlar ertangi kashfiyotlari tug'diradigan muammolarga yechim bo'la olmayotgandek, yana ham kattalarimiz bilguvchi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. N.F.Imomov – "Intellektual mulk huquqining yangi obyektlari" Toshkent: TDYI, 2011 – 9 – bet
2. O.Oqyulov – "Intellektual mulk huquqiy maqomining nazariy va amaliy muammolari" Toshkent: TDYI, 2004. - 25 - bet
3. S.S.Bozarov - "Sun'iy intellekt doirasida huquqiy javobgarlik": Yuridik fanlar doktori (Doctor of Science) – TDYU – 2023.
4. Tesla driver in fatal 'Autopilot' crash got numerous warnings: U.S. government // Reuters. URL: <https://www.reuters.com/article/us-tesla-crash-idUSKBN19A2XC> (дата обращения: 10.05.2020).
5. Non-Fungible Token (NFT): What It Means and How It Works – Rakesh Sharma // veb-havola: <https://www.investopedia.com/non-fungible-tokens-nft-5115211>
6. 1950 -yilda „Mind“ jurnalida Alan Tyuringning „Hisoblash mashinasi va intellekt“ nomli maqolasi chop etiladi va unda ilk bor hisoblash mashinalaridagi sun'iy intellekt nazariyasi ilgari surilgan.
7. By Saurabh JHA march 9, 2020 URL: <https://www.statnews.com/2020/03/09/can-you-sue-artificial-intelligence-algorithm-for-malpractice/> (13.05.2020).
8. Gao, Wei; Zhang, Yunbo; Ramanujan, Devarajan; Ramani, Karthik; Chen, Yong; Williams, Christopher B.; Wang, Charlie C. L.; Shin, Yung C.; Zhang, Song; Zavattieri, Pablo D. (2015). "The status, challenges, and future of additive manufacturing in engineering". Computer-Aided Design. 69: 65- 89. doi:10.1016/j.cad.2015.04.001. ISSN 0010-4485. S2CID 33086357.
9. <https://www.forbes.com/sites/rakeshsharma/2013/12/03/why-stratasys-sued-afinia/>

-
10. <https://www.upcounsel.com/disney-trademark-infringement> //
<https://www.wdwinform.com/news-stories/disney-looks-to-block-3-d-printed-duplicates-of-their-figurines/>
 11. <https://3dprintingindustry.com/news/lego-3d-printing-takedowns-a-lawyer-responds-and-lego-replies-163104/>
 12. https://www.wto.org/english/docs_e/legal_e/27-trips.pdf

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 2 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).